



48-MAKTABDA 48 YIL

o. ORIPOV o'lgan suratlar


- Men chet tillarini o'rganishga qiziqaman. Ayniqsa, ona tilimizdagi ba'zi so'zlarning nemis tilidagi tarjimasi yo'qligidan hayratim oshadi. Shunda ustozim Mukambar opa Javharova bu bizning millatimizga xos an'ana va odatlar bilan bog'liq ekanini tushuntiradilar. Ayni kunlarda esa maktabimizda «Chet tillari fani oyli» o'tkazilayotganidan xursandman, - deydi Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 5-«D» sinf o'quvchisi Behruz Soburov.

(Davomi 2-beida)

Bolalar-ey, bolalar, eshitmadim demanglar!

22-23-may kunlari poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Adabiyotga e'tibor - kelajakka, ma'naviyatga e'tibor» shiori ostida II Respublika «Kitob bayrami» o'tkaziladi. Tadbirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan barcha nashriyotlar ishtirok etadi. Shu bilan birga, bayramda yangi kitoblar taqdimoti o'tkaziladi, shoir-u yozuvchilar bilan muloqotlar uyushtiriladi.

Aziz kitobsevar bolajonlar, sizlarni ushbu «Kitob bayrami»ga taklif etamiz!





QO'NG'IROQNING SIRLI SADOSI

DIQQAT, TANLOV!

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, «O'zbekkino» Milliy agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi, Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi

«YANGI NIGOH» videoroliklar tanlovini e'lon qiladi



Tanlovning asosiy maqsadi:

O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish, tuman va shaharlarning turistik salohiyati, joylardagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni keng targ'ib qilish, mediamahsulotlarning keng tarqalgan turi – videoroliklar yordamida mamlakatning turizm salohiyati to'g'risida keng jamoatchilikni xabarдор qilishdan iborat.

Tanlov yo'nalishlari:

«O'zbekistonning turizm salohiyatini namoyon etgan eng yaxshi videorolik»; «O'zbekistonning ekoturizm salohiyatini namoyon etgan eng yaxshi videorolik»;

«Milliy qadriyat va urf-odatlarni targ'ib etishga qaratilgan eng yaxshi videorolik»;

«Videorolik ssenariysi uchun eng yaxshi g'oya»;

«O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari to'g'risidagi eng yaxshi videorolik».

Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

Ijodiy ishlarni qabul qilish – 2014-yilning 1-oktabrigacha.

G'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimini tashkil etish – 2014-yilning 15-noyabrigacha.

Tanlovda ta'lim muassasalarining o'quvchilari va talabalari, ijodiy birlashmalar, markaz va klublar a'zolari, professional jurnalistlar, videomahsulotlar yaratish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin.

Ijodiy ishlar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining tuman (shahar), viloyat Kengashlarida qabul qilinadi.

Batafsil ma'lumotlarni internetdagi www.videoanlov.uz sayti orqali hamda

241-02-72, 241-00-50 telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilib, olishingiz mumkin.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq ham jismonan, ham ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalash davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturining amalga oshirilishi, mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'idir. Ma'lumki, O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning sifati xalqaro talablarga to'la javob beradi. 2004-yildan buyon umumta'lim maktablarini qurish, moddiy-texnik bazasini yaxshilash va jihozlash uchun jami 2,8 trillion so'mdan ortiq, bolalar musiqa va san'at maktablariga 2009-yildan buyon 488 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

«Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Joylarda fanlarga oid ko'plab tadbirlar, tanlovlar bo'lib o'tmoqda. Bu yil birinchi marta «Ingliz tili bilimdonlari» respublika tanlovining o'tkazilishi yuqoridagi fikrimiz isbotidir.

Sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Uni bolalar va o'smirlar, ayniqsa, qizlar o'rtasida ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bo'yicha noyob tizim yaratildi. Nafaqat shaharlarda, balki eng olis tumanlarda ham zamonaviy sport komplekslari barpo etildi. Ularda o'g'il-qizlar o'zlarini xohlagan sport turi bilan shug'ullanishmoqda. Ayni kunlarda yurtimizdagi umumta'lim maktablari, maxsus maktab-internatlar hamda Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbiya olayotgan, sport bilan muntazam shug'ullanayotgan 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan qizlarga mentalitetimizga xos va mos bo'lgan sport liboslari Prezident sovg'asi sifatida topshirilmoqda.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturida 60,1 mingta o'quv o'rni mo'ljallangan 380 ta umumta'lim maktablarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, ularni kompyuter texnikasi, o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar bilan ta'minlash belgilangan. Bundan tashqari, 161 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey, 48 ta bolalar musiqa va

san'at maktabi, 110 ta bolalar sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va tubdan ta'mirlash rejalashtirilgan.

O'quvchilarning yozgi ta'til kunlari eshik qoqib turgan ayni damda ularning mazmunli hordiq chiqarish masalasi ham davlatimizning diqqat markazida. Bolalarning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida sog'lomlashtirish oromgohlariga 280 ming nafar o'g'il-qiz imtiyozli, 35,7 ming nafari bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

Bu kabi ezgu ishlar, eng avvalo, g'ururimiz, iftixorimiz bo'lgan Siz aziz o'g'il-qizlarimizni sog'lom, bilimli, aql-zakovatli, yangicha fikrlaydigan inson bo'lib voyaga yetishingizga qaratilgan. Bugun davlatimiz sizlarga katta ishonch bilan qaramoqda. Bu ishonch kelajagimizga, millatimizga bo'lgan e'tibor, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtiram namunasidir. Shuni aniq ayta olamizki, siz, albatta, bu ishonchni oqlaysiz, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo'lida olg'a intilaverasiz. Chunki sizning eng katta yutug'ingiz bor – o'zingizga ishonasiz.

Hademay respublikamizdagi bilim maskanlarida so'nggi qo'ng'iroqning sirli sadosi, jo'shqin ovozi jaranglaydi. Bu qo'ng'iroq sadosi siz o'quvchilarning murg'ak yuragingizga quvonch, dilingizga hayajon soladi. Bugun qutlug' ostonada turib ko'ngli kabi oppoq niyatlarini ulug' qilyotgan Siz qaldirg'ochlarga havas bilan boqamiz. Sababi, ulkan imkoniyatlar mamlakatida o'z mustaqil fikriga ega, iymone'tiqodi butun, o'qib-izlanishdan charchamaydigan avlod bo'lib shakllandirgiz. Aslida bu so'nggi qo'ng'iroq emas, Sizlarni mustaqil hayotga kuzatuvchi, baxt va omadga yetaklovchi ona Vatan oldidagi burchingizni ado etishga chorlovchi BIRINCHI qo'ng'iroqdir.

Birinchi qo'ng'iroq muborak bo'lsin, aziz BITIRUVCHILAR!

Feruza ADILOVA



(Davomi. Boshi 1-betda)

etish ishtiyoqida tinmay izlanmoqda.

Mukambar opa, mana qirq sakkiz yildirki, mazkur ta'lim dargohida o'quvchilarga nemis tili fanidan saboq berib kelmoqda. Ustoz ta'kidlaganlaridek, muallima, eng avvalo, fidoyi, o'z kasbiga sadoqatli, bolalarga mehri baland bo'lsin ekan.

yutuqlarga erishib, hamisha ishonchimizni oqlab kelishmoqda. Agar bu haqda kengroq bilishni istasangiz, maktabimizda tashkil etilgan mo'jaza muzeyga tashrif buyurishingiz mumkin, – deydi Mukambar opa Javharova.

Yosh avlodning chet tillarini o'rganishi uchun bor mahorati-yu ko'p yillik ish tajribasini ayamayotgan bu fidoyi ustoz 48 yil mehnat qilgan qadrdon dargohini jon dildan sevishini suhbatimiz davomida his etdik.

QIZLARXON

48-YIL -MAKTABDA

Fan oyligini o'tkazishga bosh-qosh bo'layotgan Mukambar opa har doimgidek o'quvchilarni o'z nabilaridek erkalab, she'r va qo'shiqlar, grammatik qoidalarni o'rgatmoqdalar. O'g'il-qizlar esa yil davomida o'qib, o'rgangan bilimlarini namoyish

— Oliyog'ni bitirgach, yo'llanma bilan shu maktabda ish boshlaganman. O'quv dargohimiz tumanda o'z nufuziga ega, o'quvchilarimiz ta'lim va sport yo'nalishida qator



Suratlar muallifi: Z. NISHONOVA

YOSH RASSOMLAR BELLASHUVI



OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Yaqinda respublikamizdagi umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda «Ochiq eshiklar kuni» o'tkazildi. Shu munosabat bilan biz 9-sinf bitiruvchilari «Biz bilan bir kun» shiori ostida Toshkent temiryo'l transporti muhandislari instituti qoshidagi Mirobod akademik litseyida tashkil etilgan tadbirga bordik.

Tadbir davomida litseyning o'qituvchilari va o'quvchilari bizga ushbu dargohda yaratilgan shart-sharoitlar haqida atroflicha ma'lumot berdilar.

Bir so'z bilan aytganda, sayohatdan olam-olam taassurotlar bilan qaytdik.

Sojidxon TO'RAXONOVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 214-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Bir necha yildirki, ustozimiz Obidjon Raimov biz o'quvchilarga tasviriy san'at fanidan saboq berib kelmoqda. Ularning o'z kasbiga bo'lgan fidoyiligi, har bir darsni noan'anaviy usulda o'tishi bois, yildan yilga o'quvchilarda rasm chizishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.


Kuni kecha maktabimizda tasviriy san'at bo'yicha tanlov o'tkazilib, unda o'ttiz nafardan ortiq o'quvchilar o'zlarining iqtidorlarini

namoyish etishdi. Biz ham ushbu tanlovda dizayn yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdik. Bellashuv yakunida g'olib o'quvchilarga maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Laylo ABUQAYUMOVA,
Nilufar ZARIFJONOVA,
Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilari



BILIMDONLAR KO'RIGI



Yaqinda «Ingliz tili bilimdonlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tganidan xabaringiz bor. Bizning maktabimizda ham o'quvchilarning chet tillarini chuqur o'rganishlari uchun haftaning har chorshanba kuni xorijiy tillar kuni deb belgilangan. Shu kuni ta'lim maskanimizda o'tkaziladigan turli bellashuvlarda ishtirok etib, ingliz tili fanidan olgan bilimlarimizni yanada mustahkamlash imkoniga ega bo'lamiz. Ayniqsa, tadbirlarda 5-«B» sinf o'quvchilari Mohinur Mavlonova, Mehroj O'rozov, 6-«B» sinf o'quvchilaridan Farangiz Omonova, Sarvina Davlatova, Gulira'no O'sarova, 7-«A» sinf o'quvchilari Marjona Xayrullayeva, Muazzam Burhonova kabi a'lochilari o'quvchilar faol ishtirok etishmoqda.

Shu o'rinda ingliz tili fani o'qituvchilarimiz Xosiyat opa Qultoyeva, Iroda opa Do'stmurodovaning mehnatlarini e'tirof etmoqchiman. Negaki, ana shu mehribon ustozlarimizning kasbiga bo'lgan fidoyiligi bois, maktabimiz o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi tobora ortib bormoqda.

Kelajakda respublika ko'rik-tanlovlari qatnashib, ustozlarimiz mehnatini oqlashga harakat qilamiz.

Mohiniso BOBOQULOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

– Maqsudjon, bolam, maktabingga kech qolasan. Tezroq nonushtangni qilib ol.

Avvallari ishga barvaqt ketadigan otasi bilan birga turib nonushta qiladigan, maktabga borishdan oldin uy vazifalarini bir qur qaytarib olishga ulguradigan o'g'li keyingi paytlarda arang uyg'onadigan, darslarni ham apil-tapil bajaradigan bo'lib qolgandi. Bu hol onasi Dono opani o'ylantirib qo'ydi. Bu haqda otasi bilan gaplashib olishni diliga tugib qo'rganiga ancha bo'lgan. Ba'zan, o'g'lim darslari ko'pligidan toliqayotgandir, deb o'zini o'zi yupatib ham qo'yadi. Uning bir-ikki kundan buyon uyqusida bosinqirab uyg'onib ketishi, karavotida mukka tushganicha uzoq xayol surib o'tirishidan baribir ko'ngli g'ash.

Maqsud xontaxta oldiga zo'rg'a kelib o'tirdi. Uyquasi yaxshi bo'lmaganidan ko'zlarini qizarib ketgandi.

– Choy ichgim kelmayapti, – dedi u onasi uzatgan piyolani istamaygina olarkan. – Pishloq bilan non olvolaman, maktabda yeyman.

Onasi uning oldiga ovqat suzilgan kosani qo'ydi.

– Bolam, ovqatingni yeb olgin. O'qishda yeydiganingni ham tayyorlab beraman. Qara, rangingda rang qolmabdi. Odam ertalab to'yimli nonushta qilib olishi kerak.

Maqsud ovqatdan cho'qilaganiday bo'ldi-yu, yemadi. Onasi uzatgan nonni sumkasiga soldi. Ketishga chog'lanayotganini ko'rib, onasi qo'lidan ushladi.

– Biroz sabr qil. Hozir

singling ham chiqadi. Birga ketasizlar. Tashqarida yomg'ir yog'yapti. Singling yomg'irda qiynalmasin.

Onasining gaplari yoqmaganidan Maqsudning lablari qimtindi.

– Singlim yosh bola emas-ku, o'zi yetib oladi.

Bu gapdan hang-u mang bo'lib qolgan

TARBIYA

o'ta mas'uliyatli jarayon

ona o'ziga kelguncha o'g'li ko'chaga chiqib bo'lgandi. Maqsud maktab tomon shoshib borarkan, dilida allaqanday yovvoyi shavq uyg'ondi: bugun Akmalning kunini ko'rsataman. Kecha qo'li baland kelib meni toza kalaka qildi. Endi qasdimni olaman...

Shu xayollar bilan maktabga kirib bordi. Ichidan jo'shib kelayotgan g'ayratibiy g'azab tufayli darslarda o'tilgan mavzular ham qulog'iga kirmadi.

Oxirgi dars tugashi bilan oldingi qatorda o'tiradigan Akmalning oldiga keldi.

– Yur, ketdik. Bugun kim zo'r ekanini senga ko'rsatib qo'yaman.

– Qo'lingdan kelmaydi, – dedi Akmal bamaylixotir kitob-daftarlarini yig'ishtirarkan.

Ikkala sinfdosh tortishganicha



maktabdan chiqib, yo'lni internet-kafeto mon solishdi. U yerga borib kompyuter oldiga o'tirib olib, «jangga kirishishdi». Maqsud «so'zining ustidan chiqib», raqibining barcha askarini bitta qoldirmay qirib tashladi. Hatto o'zi ham bir necha bor cho'chib tushdi. Ular kompyuterxonada uzoq qolib ketishdi. Ko'chaga chiqqanlarida, Quyosh ufq ortiga botayotgandi. Uydagilarga nima deyman, deb Maqsud jo'yali bahona izlay boshladi...

– Sardor, shu bolani menga bering. Uni bizga jishlatgan usullari bilan jazolaymiz.

– Yo'q, yo'q, bizga bering. O'zimiz uning adabini berib qo'yamiz, – deb minglarcha qo'llar unga tomon cho'zildi...

«Yordam bering, voy-dod», deganicha olomon ichidan qochib chiqishga urinib, karavotidan ag'anab tushgan

Muhokama uchun mavzu

Maqsud o'ngimi-tushimi bilmay, dag'dag' titrab turganida chiroqni yoqib, xonaga otasi bilan onasi kirib keldi. Onasi kosadagi muzdek suvdan yengil sepib, o'g'lining yelkasidan quchdi.

– Nima bo'ldi, bolam, tobing qochdimi?

Butun vujudini qaltiroq bosgan Maqsud onasining yelkasiga boshini qo'ydi.

– O'yijon, qo'rqib ketyapman. Ketib qolmanglar.

Bu holdan tashvishga tushgan onasi, ko'p bolam, deb o'g'lining qo'llarini silay boshladi.

– Biz yoningda bo'lamiz. Hech narsadan qo'rqmagin.

O'sha kuni Maqsud tonggacha uxlamay chiqdi. Ota-onasi ham o'g'li yonida tunni bedor o'tkazdi.

Keyin-chi, keyin nima bo'ldi, deb qiziqayotgan bo'lsangiz kerak?! Mayli, buyog'ini ham aytib bera qolay. Uch oydan so'ng o'g'lining tug'ilgan kuniga ota-onasi kompyuter sovg'a qildi. Hayron bo'lmang. Men u bolani yaxshi bilaman. Hozir u kompyuterdan to'g'ri foydalana olish, bo'lmag'ur o'yinlardan, kishi fikrini buzuvchi saytlardan o'zini tiyishga iroda topa oldi. Endi u 6-sinfda o'qiydigan singlisi Durdona bilan maktabga birga qatnayapti. Yomg'irli kunlarda singlisini ehtiyotlab, qo'lidan ushlab oladi. Xushchaqchaq, dadil odimlar bilan ketayotgan aka-singilga ko'zingiz tushsa, diqqat bilan razm soling. Ular Maqsud bilan singlisi bo'lishi mumkin.

Yusuf ABDULLAYEV

Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 145-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Xurshid RAHMONNi gazetamiz orqali berib borilayotgan bir-biridan qiziq maqola-yu hikoyalari orqali yaxshi bitsangiz kerak. Bu linib-linchimas, izlanuvchan yosh muallifimiz yaqinda poytaxtimizdagi O'zbekiston davlat san'at muzeyi direktori Vasila Fayziyeva huzurida bo'lib, muzeylar, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni haqida suhbatlashdi.

– Hurmatli Vasila opa, xabaringiz bor, Yurtboshimiz Qarori bilan tasdiqlangan «Sog'lom bola yili» Davlat dasturida mamlakatimiz muzeylarida har haftaning bir kunida «Ochiq eshiklar kuni» o'tkazish belgilangan edi. Mazkur yo'nalishda siz boshchilik qilayotgan san'at maskanida qanday ishlar amalga oshirilmogda?

– Muzeyimizda dastur doirasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yosh tomoshabinlarimizning qiziqish va dunyoqarashini inobatga olib, ularga alohida ekskursovodlar ajratilgan. Ma'rifiy-estetik sayohat davomida bolalarga san'at va madaniyatning inson kamo-

tilmoqdaki, bunda bizga Uspenskiy nomidagi Respublika musiqa akademik litseyi o'quvchilari yaqindan yordam berishyapti.

– San'atning biz yoshlar tarbiyasi, dunyoqarashida tut-

o'ta muhim bo'lgan o'tmish madaniyatimiz, san'atimiz, qadriyatlarimiz haqida chuqur va ko'rgazmali ma'lumot beruvchi betakror maskan hisoblanadi. Zero, muzeylar o'tmish va kelajak o'rntasida ma'naviy ko'priklar vazifasini o'taydi. Shundan kelib chiqib, biz yoshlarimiz uchun turli mavzularga oid usta-shogird mahorat darslari, o'z mehnati tufayli el og'ziga tushgan hunarmand ustalar, san'atkorlar, olimlar bilan ko'plab ijodiy uchrashuvlar tashkil qilmoqdamiz. Bundan tashqari, yosh avlodga yurtimiz tarixini o'rgatish bilan birga, jahon madaniyati va san'ati haqida ham kengroq ma'lumotlar berib borish maqsadida san'at maskanimizda Koreya Respublikasi, Hindiston, Yaponiya rasomlarining asarlari hamda xalq hunarmandchiligiga oid ko'rgazmalar tashkil etilmoqda.

– Mazmunli suhbattingiz uchun tashakkur.

MUZEYLAR BOLALARNI CHORLAYDI



lotidagi o'rni, xalqlar o'rntasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashdagi ahamiyati aniq misollar yordamida tushuntirilmoqda.

Shuningdek, muzeyimizda imkoniyati cheklangan va kam ta'minlangan oila farzandlari uchun maxsus konsertlar tashkil

gan o'rni xususidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– O'zbekiston davlat san'at muzeyi yosh avlod tarbiyasida

SHUNDAY TO'GARAGIMIZ BOR

Bugun sizlarga poytaxtimizning Sergeli tumani 300-umumta'lim maktabidagi «Jasorat» nomli vatanparvarlik to'garagi haqida so'zlab bermoqchimiz. Nasiba opa Kamolova rahbarlik qilayotgan ta'lim dargohida o'quvchilarni sportga keng jalb etish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida faoliyat yuritayotgan ushbu to'garak qatnashchilarining soni bugunga kelib sakson nafarga yetgan.



boshchiligida o'tkazilgan tadbirda «Kelajak o'g'lonlari», «Do'stlik», «Kamalak», «Askar» kabi guruh a'zolarining ona Vatani mavzusidagi qo'shiqlarni kuylab, maydonga saf tortgan holda chiqib kelishlari barchani to'qlantirib yubordi. Jumladan, 4-«F» sinf o'quvchisi, «Kelajak o'g'lonlari» guruhining sardori Abubakir Bositxonov o'z hayajonini yashira olmay, maktabida shunday to'garak tashkil etilganidan xursand ekanini aytib, kelajakda yurtimizni himoya qiladigan, otanasiga suyanib bo'ladigan mard yigit bo'lishga so'z berdi.

Ustozlar qarsaklar bilan barcha o'quvchilarni olqishlab, yakuniy natijalarni e'lon qilishdi. Tadbir so'ngida barcha mehmonlar ushbu ta'lim maskanida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlar ota-onasi, ustozlarini qadrlab, yurtga munosib farzand bo'lish istagida ulg'ayishayotganidan mamnun bo'lganliklarini ta'kidlashdi.

Sayyora QODIROVA

– Uyimizda bobomdan qolgan dutor bor. Uni bolaligimda, «Mening dutorim», deya qo'limdan sira qo'ymasdim, – deydi Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 195-umumta'lim maktabining 3-«I» sinf o'quvchisi Shahzoda Eshonxo'jayeva.

Tengdoshingiz, mana ikki yildirki, poytaxtimizdagi 16-musiqa va san'at maktabida dutor yo'nalishida tahsil olmoqda. Shahzodaga havas qilgan singlisi Robiya Eshonxo'jayeva ham ushbu musiqa maktabida malakali ustozlardan go'zal kuylar chalishni o'rganmoqda.



MUSIQA MASKANIDA BAYRAM



Sherzodni musiqa maktabiga otasi yetaklab kelgan ekan. Bugun esa oila a'zolari-yu sinfdoshlari uning mahoratidan bahramand bo'lishmoqda.

Aslida musiqaga qiziqmaydigan, shiringina tili bilan qo'shiq xirgoyi qilmagan bolaning o'zi bo'lmas kerak. Bu dargohda fortepiano, musiqa nazariyasi, torli cholg'ular, xoreografiya, tasviriy san'at bo'limlarida tahsil olayotgan 226 nafar o'quvchilar kelajakda yetuk san'atkor bo'lishni maqsad qilishgan.

Hamisha kuy-qo'shiq yangragan bu maskanda deyarli har kuni bayram.

– Bugungi yillik hisobot konsertida o'quvchilarimiz olgan bilimlari-yu iqtidorlarini namoyish etishadi, – deydi Xalq ta'limi a'lochisi Ismat aka Isroilov.

Bu ustozning Muhiddin Qoriyoqubov nomli va ko'plab respublika ko'rik-tanlovlari g'olib bo'lgan shogirdlari ushbu tadbirda ham muvaffaqiyatli ishtirok etishlari yuz-ko'zlaridan ma'lum. Mana, Sherzod Qutlumurodov sahnaga chiqishga shay turibdi. U Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabining 7-«V» sinfida tahsil oladi. Ikki yildan buyon rubob chalishni qunt bilan o'rganib kelmoqda.

Qo'lidan doirani qo'yamaydigan Saidvalixon Saidikromov esa ushbu maktabning eng kichik o'quvchisi. 6 yoshli bu bolakaj katta sahnalarda o'z iqtidorini namoyish etish orzusida. Besh yildan buyon dutor chalishning sir-larini qunt bilan o'rganib kelayotgan Fayzulla Sharofiddinov esa bu yil maktabni tamomlaydi.

Biz san'atga oshno bu o'quvchilarning kelajakda mohir sozanda-yu bastakor bo'lib yetishishlariga tilak bildirib, tadbirdan olgan fotolavhalarimiz bilan sahifamizni bezadik.

O'z muxbirimiz

BIZ BAXTIYOR AVLODMIZ



ZUBAYDA olgan suratlari

Poytaxtimizning Hamza tumani-dagi 206-umumta'lim maktabi-ni-ning 2-«A» sinfida «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'lur» mavzusida tadbir o'tkazildi.

– Prezidentimizning «Ham jis-moniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland

ko'tarib yashaydigan, Vatani-mizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga barkamol avlodgina qodir bo'ladi», degan gaplari biz o'qituvchilarning shiorimizga ay-langan, – deydi ustoz Dilorom Boymatova. – «Sog'lom bola yili» biz boshlang'ich sinf ustozlari

zimmasiga yanada katta mas'u-liyat yuklaydi. Har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetka-zish bizning muqaddas burchi-mizdir. O'sib kelayotgan avlod-ni-ning nafaqat bilimi, balki ma'naviy tarbiyasiga ham javobgarmiz.

Tadbirda Ahror, Shahzod, Feruza, Gulruh, Marjona, Madi-na, Diyorbek, Abduhamid, Asida, Famuza, Farid, Aslbek kabi

kichkintoylar Vatan, Istiqlol, ona, do'stlik mavzularida she'rlar aytdilar, kuy-go'shiqlar raqslar-ga ulandi. Ayniqsa, ularning ingliz tilida dona-dona so'zlash-lari kishining havasini keltirdi.

Tadbir so'nggida a'lo o'qishi, namunal xulqi bilan tengdosh-lariga o'rnak bo'lgan o'quvchi-lar maqtoov yorlig'i bilan taqdir-lanishdi.

NIGORA

The Present Continuous Tense (Hozirgi davomli zamon)

Hozirgi davomli zamon gapirilayotgan paytda, hozir sodir bo'layotgan ish-harakatni ifodalaydi.

Subject + to be + Verb+ing
(ega) (am, is, are) (fe'l)

For example:
I am reading a book now.
She is going to school.
We are singing a song now.

Bo'lishsiz shakli **to be** yordamchi fe'lidan keyin «not» inkor yuklamasi o'yiladi.

Subject + to be not + Verb+ing

For example:
He is not working now.
They are not sleeping.

So'roq shaklida esa **to be** yordamchi fe'lini egadan oldinga o'tkazish orqali yasaladi.

To be + Subject + Verb+ing ?

For example:
Is my mother cooking a meal?
Are they watching TV at the moment?







Now, at the moment ushbu zamonning kalit so'zlari hisoblanadi.

O'zDJTU talabasi
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

- ring play swim
watch read shine

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Full fill the sentences with the help of the words in the box:
(Quyidagi so'zlardan foydalanib, gaplarni to'ldiring:)

<p>1 </p> <p>The phone is <i>ringing</i>.</p>	<p>2 </p> <p>The sun</p>	<p>3 </p> <p>Olim</p>
<p>4 </p> <p>Dilnoza</p>	<p>5 </p> <p>Sardor and Lola</p>	<p>6 </p> <p>They</p>

Look at the pictures and put the words in English into the empty plaus.
(Rasmlarga qarang va ularning inglizcha nomini boshqotirmadagi bo'sh kataklarga joylashtiring).

REBUSES



U	Z	B	E	K	I	S	T	A	N

Munisa HAQBERDIYEVA

CHECHAKLARGA BERIB NOZ

Bahor chog'i maysalar,
Yashil rangda yashnaydi.
Quyosh iliq taftida,
Qushlar jo'shib sayraydi.

Ariqlarda oqar suv,
Jildirab shivirlaydi.
Qoqib qanot qaldirg'och,
Yurtga tinchlik tilaydi.

Yomg'ir yog'ar ohista,
Kamalak chiqar asta.
Chechaklarga berib noz,
Bahor to'shar poyandoz.

Feruza FAZLIDDINOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
6-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

BAXTLI INSON EKANMAN

Vatan, o'zi nimasan...
Tongda esgan sabomi?
Yo dildagi muhabbat,
Orombaxsh bir navomi?

Hayotimning mazmuni,
Va borlig'im o'zingsan.
Senda mening taqdirim,
Ozod, obod Vatansan.

Vodiylaring bepoyon,
Bor purviqor tog'laring.
Suvlaring sho'x, ham ravon,
Yashnagay gul, bog'laring.

Neligingni angladim,
Asli jannat ekansan.
Quchog'ingda yayradim,
Baxtli inson ekanman.

Bobur XOLMURODOV,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
7-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



ONAJONIM

Onajonim, poyingga kelib,
She'rlar bitay sening nomingga.
Onajonim, onajoninam,
Ne sababdan ko'zlaringda nam?..

Onam dedi: «Quvonchdan bugun
Yig'layapman sevinib, bolam.
Shoir qizim atay men uchun,
Tebratibdi faxr-la qalam».

Muhayyo YOQUBOVA,
Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi
33-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

CHIP-CHIPJON

haqida jajigina qissa



Chip-chipjon mittigina edi. Uychasi ham kichkina. Unga kechagina sig'ib turgandi, bugun bo'lsa sig'mayapti. Negaligini o'zi ham bilmaydi.

Chip-chipjonning birdan qimirlagisi, oyoqlarini, qil qanotlarini yozib, yayragisi keldi. Og'zini katta ochib, to'yib-to'yib nafas olgisi, tumshug'ini biram cho'zgisi keldi-ki, ammo bo'lmadi. Uychasi torlik qildi. Bu ham mayli, atrofga mo'ralay desa, yorug'likni sezmayapti. Yorug'lik qanaqa bo'larkin-a, o'zi? U uychaning ichida yanayam qisilib ketdi. Oyoqlari bilan bir tepib, devorchasini qulatib yubormoqchi bo'ldi. Qayoqda, oyoqlarini qimirlatishga joy yo'q-ku! Shularni o'y-lab turuvdi, bexosdan tumshug'i qichib qoldi. Uni qashimoqchi bo'lib devorchaga bir-ikki ishqalagandi, kutilmaganda qiziq ovoz chiqa boshladi: «Qitir-qitir... Qitir-qitir...» Ovoz o'zigayam yoqib ketdi. Keyin «Kim bor?» degisi kelib, tumshug'i bilan devorchani taqillata boshladi. Buni qarangi, undan darcha ochilib, ichkariga hali Chip-chipjon anglab yetmagan bir narsa sizib kira boshladi. Bundan uning a'zoyi badani yengil tortdi. Yoqimli narsa yana mo'jizasi uni ko'rsatdi: darcha uni

tashqarining sirli bag'riga chaqira boshladi. Chip-chipjon suyunganidan oyoqchalarini kermoqchi bo'lib bir uringandi, uychaning devorlari qulab tushdi. Atrof birdan yorishib ketdi. Lekin munchoqdek ko'zlarini ocha olmadi. U kimningdir issiq bag'rida erkanlanishni istardi. Afsus, bunday bo'lmadi. Quloqlari ham «chi-chi»dan boshqa hech narsani eshitmadi. Atrofi unga o'xshash o'zini eplolmaydigan mittivoylarga liq to'la edi. Ular bir-birlarining biqinlariga tiqilganicha isinishardi.

JIMIT BARMOQLAR

Oradan bir necha kun o'tgach, Chip-chipjon va uning ancha-muncha o'rtoqlarini yopiqlik mashinaga solib, qayoqqadir olib ketishdi. Mashina yurib-yurib oxiri odam ko'p joyda to'xtadi. Eshigi ochilganda, Chip-chipjonning ko'zlari yorug'dan qamashib ketdi. Boyadan beri chiyillab borayotganlarga u ham jo'r bo'ldi. Lekin nima bo'layotganiga tushunmadi. Katta-katta barmoqlar boshi uzra u yoqdan-bu yoqqa

o'tgan sari o'rtoqlari kamaya boshladi. Chip-chipjonni bo'lsa, avvaliga haybatli qora barmoqlar shosha-pisha ushladi. Keyin o'zi kabi kichkina barmoqlarga o'tdi. Bu barmoqchalar Chip-chipjonni ehtiyotlab ushlab bag'riga bosdi. Keyin qancha yurishdi, bilmadi.

Barmoqlar yana o'shanday ehtiyotkorlik bilan oppoq to'shalgan manzilga qo'ydi. Bu uycha qalin qog'oz qutichadan yasalgandi. Ziyrak barmoqlar, shirin taomlar uning murg'ak tanasini ilitar, kuch berardi. Momiqlik qanotchalarini parvoz etishga oshiqayotgandek tuyulardi. Chip-chipjonga onda-sonda nozik, sho'x ovozlari eshitilgandek bo'lardi. Bu ovozni Chip-chipjon doim intizorlik bilan kutar, intiqlik bilan tinglardi. Ba'zida ular orasida nolish ovozlari ham eshitarlardi. Bu ovozlardan hali Chip-chipjon tushunib yetmaydigan gaplar borgan o'xshardi.

U o'ziga mehribonlik qilayotgan jimit barmoqlarni hammadan ham tezroq sog'inardi. Chunki ko'pincha ular ko'rinmay qolardi. Shunda Chip-chipjon juda zerikardi. Ayvon to'g'risidagi kattagina qutichada onda-sonda lip-lip qilib o'tadigan suratlarini tomosha qilardi. U keyingi kunlarda bir narsani seza boshladi. Eshik oldida nimadir unga mo'ltirab qarab turardi. Oq-qora dumlarini likillatib, tilchalarini osiltirib, «Bu yoqqa chiq, bu yoqqa chiq», deyayotganga o'xshardi. Chip-chipjon uning

Yayra SA'DULLAYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

oldiga qanday borishni hali bilmasdi. Yangi tanishining «vov-vov»lashidan qo'rqib, uychasiga bekini olardi. Tanishi osmonda uchgan allanimalarga qarab miriqib vovillab-vovillab hovlini bir aylanib kelardi. Dumini likillatib Chip-chipjonni yana pastga, hovliga chorlardi. Chip-chipjon tanishi – Do'mboqvoyning uni xafa qilmasligiga ishonma boshladi. Shunday bo'lsa ham o'zicha Do'mboqvoyni qo'rqitmoqchi bo'lib o'midan turdida, kuchukchani oldiga zarb bilan yugurdi. Do'mboqvoy kutmagan ekanmi, Chip-chipjonning vajohatidan cho'chib tisarildi. So'ng, o'zini tutib oldi. Chip-chipjonning jasurligidan quvonib qo'ydi. Shu kuni ular o'rtoq tutinib, rosa o'ynashdi. Keyin charchashdi shekilli, soya joyga borib, dam ola boshlashdi. Chip-chipjon Do'mboqvoyning bag'rinda miriqib uyquga ketdi. Bir vaqt ko'zini ochsa, oshxona eshigi oldida qop-qora bir maxluq unga tikilganicha turibdi. Ko'zlari yonadi. Chip-chipjon, ayniqsa, uning uzun-uzun mo'ylovlaridan qo'rqib ketdi. Qoravoy tirnoqlari uzun-uzun oldingi oyog'i bilan mo'ylovlarini silab-silab qo'yardi. Do'mboqvoy ziyrak yotgan ekan, bir vovillab bergan edi, Qoravoy erinibgina uy orqasiga o'tib ketdi.

(Davomi bor)



Dunyodagi tengdoshim

ENG YAXSHI SOVG'A

Dunyoda xalqlar, millatlar kop. Ularning barchasida o'ziga xos urf-odat, an'analar hamda tartib-qoidalar borki, bu o'sha mamlakatlar aholisining o'tmishi va geografik joylashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Bugun biz sizga Atlantika ummoni qirg'oqlarida joylashgan Buyuk Britaniya yoshlari haqida hikoya qilamiz.

Angliyalik bolalarning tug'ilgan kuni uchun eng yaxshi sovg'a nima, bilasizmi? Tavallud ayyomiga masxarabozning kelishi mamlakat bolajonlarini behad quvontirar ekan. Ahamiyatlisi, ular masxarabozga kelgusi yilgacha biror yutuqqa erishishga va'da berishadi va so'zlarining ustidan chiqish uchun astoydil harakat qilishadi.

Mamlakatda bolalarning qaysi sohaga qiziqishi boshlang'ich maktab davridayoq e'tiborga olinadi va ularning dastlabki ishtiyoqlari qo'llab-quvvatlanadi. Shu bois, ota-onalar ham farzandlarining layoqatidan kelib chiqib, ularni qiziqishlari sari yo'naltirishga harakat qilishadi. Masalan, shifokor bo'lishni orzu qiladigan bolaning ota-onasi uning doimo uyda o'zini shifokordek tutishiga sharoit yaratib beradi. E'tiborli jihati, Angliyadagi har bir tashkilotda bolalar bilan ishlash bo'limlari mavjud. Ular yosh avlodning turli sohalarga munosabatlarini



alohida o'rganib, shunga muvofiq tuzib chiqilgan reja asosida ish olib borishadi.

Shuningdek, ingliz bolalari mashhur adib, vatandoshlari – Charlz Dikkensni juda e'zozlashadi, yozuvchining hayot yo'li va faoliyatini o'zlar uchun mukammal namuna deb bilishadi. Shu bois, ota-onalar farzandlarining kitob javonida Charlz Dikkens asarlari bo'lishini hech qachon yoddan chiqarishmaydi. Hayratlanarli jihati, angliyalik 11 milliondan ortiq bolaning shaxsiy kutubxonasi bor va u yerda ushbu yozuvchining asarlari asosiy o'rin egallaydi. Ha, bundan o'nak olsa arziydi, shunday emasmi?

Mamlakat yoshlari huquqini himoya qiluvchi va ularni bir maqsad yo'lida birlashtiruvchi tashkilot bu – Yoshlar milliy markazi (National Young Centre) hisoblanadi. Mazkur tashkilot faoliyati xuddi respublikamizdagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatiga o'xshab ketadi.

Kullas, Angliya bolalarining hayoti, qiziqishlari va turmush tarzi biroz o'zgacha bo'lsa-da, ammo puxta bilim olishlari va maqsadi sariqat'iy intilishlari bilan yurtimiz yoshlariga juda-juda o'xshaydi.

Farhod ESHMO'MINOV

IQTIDORLILAR BAHSI

Poytaxtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan yosh sportchilar o'rtasida badminton bo'yicha musobaqa o'tkazildi. O'zbekiston milliy paralimpiya assotsiatsiyasi va O'zbekiston Badminton federatsiyasi hamkorligida o'tkazilgan turnirda 60 nafardan ziyod sportchilar g'oliblik uchun bahs olib bordilar.



Bugun mamlakatimizda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida sportni keng ommalashtirish yo'lida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o'laroq, yurtimiz paralimpiyachilari Osiyo va jahon chempionatlari hamda Paralimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda. Jumladan, Londonda o'tkazilgan XIV Paralimpiya o'yinlarida mohir dzyudochimiz Sharif Xalilov kumush medalni qo'lga kiritgani, yana bir iqtidorli sportchimiz Doniyor Soliyev Xitoyning Guanchjou shahrida o'tkazilgan Paralimpiya bo'yicha Osiyo o'yin-

larida uchinchi natijani qayd etgani so'zimiz isbotidir. Quvonarlisi, bugun mamlakatimizda ana shu mohir paralimpiyachilarimizning munosib avlodlari yetishib chiqmoqda.

Badminton musobaqasining o'g'il bolalar o'rtasidagi juftlik bahslarida Vladislav Ligay va Valeriy Litvinenko shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olgan bo'lsa, qizlar o'rtasidagi bellashuvlarda Elvira Legay hamda Olga Komilova bosh sovrin egasiga aylandi. Aralash juftlik bahslarida esa Qilichbek O'rolov va Mehriyov Amriddinovaga teng keladigan raqib topilmadi.

G'oliblar musobaqa tashkilotchilari tomonidan medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

S. TURSINOV

POLVONIMIZ – OSIYO CHEMPIONI

Tailand poytaxti Bangkok shahrida o'tkazilgan erkin, yunon-rum va xotin-qizlar kurashi bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida o'zbekistonlik yosh kurashchilar muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Osiyo chempionatida qit'aning eng iqtidorli yosh kurashchilari sovrinli o'rinlar va joriy yil 16–28-avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'smirlar o'rtasida bo'ladigan II Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun bahslashdi.

Musobaqaning yunon-rum kurashi bo'yicha o'tkazilgan bahslarida umidli sportchimiz Ilhom Bahromov o'z vazn toifasida barcha raqibini mag'lubiyatga uchratib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi va II o'smirlar Olimpiadasiga yo'llanma oldi.

Sportchimiz sharafiga davlatimiz bayrog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangradi.

Hamyurtlarimizdan Abubakr Alimov kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Yormatbek Sheramatov, Jasurbek Ortiqboyev va Iskandar Sobirov o'z vazn toifasida uchinchi o'rinni egalladi. Erkin kurash bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda Abbos Rahmonov, Abdurasul Qo'ldoshev, Turonbek Turonmurodov va Sardorbek Xolmatov bronza medalga sazovor bo'ldi.

Xotin-qizlar kurashida Shahodat Jo'lliboyeva, Nabira Yesenboyeva, Lolaxon O'rinboyeva va Baxtigul Boltaniyozova shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi.



KUCHLILAR SARALANDI

Poytaxtimizdagi badiiy gimnastika bo'yicha bolalar va o'smirlar respublika itxisoslashgan Olimpiya zaxiralari sport maktabida sport gimnastikasi bo'yicha Toshkent shahar ochiq birinчилиgi bo'lib o'tdi.

Musobaqaning sport ustaligiga nomzod o'smirlar o'rtasidagi ko'pkurash bahslarida Islom Asqarov oltin medalni qo'lga kiritdi. Artjom Filippov kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Asliddin Ochilovga bronza medal nasib etdi.

Sport ustalari bahsida Osiyo chempionati sovrindori Temur Qodirov shohsupaning eng yuqori pog'onasini egalladi. Otabek Masharipov ikkinchi, Abdulla Azimov uchinchi o'rinni band qildi.



Qizlar o'rtasida Naima Nig'monova, Arina Yulusheva, Diana Baxtiyorova, sport ustaligiga nomzodlar bahsida Lyubov Karpova, Sabina O'rinboyeva, Sevinch Zafarova, sport ustalari musobaqasida Dilnoza Abdusalimova, Asal Saparboyeva va Veronika Orlova g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Shoh MUHAMMAD

pezanda qilsa!



Yangi uzilgan karamdan tayyorlangan do'lma, sho'ruva inson organizmini darmondorilarga to'yintirishini ham-mangiz yaxshi bilasiz. Shuni inobatga olgan holda sizga ajoyib salatni tavsiya qilmoqchimiz. Vitaminlarga boy ushbu salat siz va oilangizdagilarga manzur bo'ladi.

K
A
R
A
M
L
I
S
A
B
L
I
T
A
B
L
A
T



Kerakli masalliqlar:

Kichikroq karamning yarim bo'lagi, 2 dona pomidor, 3 dona bodring, ko'kat, ikki oshqoshiq mayonez.

Tayyorlanishi:

Avvalo, karamni mayda qilib to'g'rab, alohida idishga solamiz. Keyin pomidor, bodring, ko'katlarni ham mayda to'g'rab, karamning ustiga qo'shamiz. So'ng to'g'ralgan masalliqlar ustidan mayonez quyib, yaxshilab aralashiramiz.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

ERTAKLAR - EZGULIKKA YE'RAKLAR



Bolajonlar, sizlar oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Bembi», «Mikki Maus», «Zolushka», «Oppog'oy», «Piter Pen», «Alisa mo'jizalar mamlakatida» nomli multfilmlarni miriqib tomosha qilasiz, shunday emasmi? Bugun biz sizlarga ana shu multfilmlarning yaratuvchisi Uolt Disney haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Uolt Disney 1901-yil 5-dekabrda AQSHning Chikago shahrida tavallud topgan. Yoshligidan ertak va hikoyalarni tinglashni yaxshi ko'rgan bolakay katta bo'lgach, aniqrog'i, 1923-yili ukasi bilan Gollivudda «Disney brothers Cartoon Studio» kinostudiyasini ochishga erishadi.



1924-yili Disney ilk bor Luiza Kerolla qalamiga mansub «Alisaning dengizdagi bir kuni» filmi suratga oladi. 1940-yili italyan yozuvchisi Karlo Kallodining «Pinokkio» ertagi asosida to'liq metrajli filmni suratga olish orqali Disney butun dunyo bo'ylab shuhrat qozonadi va ko'plab muvaffaqiyatlarga erishadi. Uoltning yana bir orzusi o'zi yaratgan multfilm qahramonlari aks etgan ko'ngilochar bog' barpo etish edi. Yillar o'tgach, uning orzusidagi istirohat bog'i AQSHning janubi-g'arbidagi Florida shtatida qurib bitkaziladi. Jajji bolajonlar bilan doimo gavjum bo'lgan ushbu bog' «Sehrli Qirollik», deb nomlangan. Shundan so'ng, 1982-yili «Epcot» (Samoviy kema) istirohat bog'i, 1989-yili esa Disneyning Gollivuddagi studiyasi va 1998-yili Qirollik hayvonot bog'i ochiladi.

Bugungi kunda Disneyning nafaqat istirohat bog'lari, balki ko'plab telekanallari ham faoliyat yuritmoqda.

Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

Ona zamin ne'matlari

«Kulver», «Toshkent», «Dilbar», «Shreder xotirasi», «O'zbekiston» kabi navlari yetishtiriladi.

Ushbu mevada A, B, C vitaminlari bo'lib, uning ishtahani ochuvchi, asablarni tinchlantiruvchi xususiyatlari bor. Ayniqsa, qulupnaydan tayyorlangan murabbo juda mazali bo'ladi.

Shunday ekan, onajontaringizga qulupnay murabbosini tayyorlashda yordam bering.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Ayni kunlarda diyorimizda siz sevib iste'mol qiladigan qulupnaylar pishib yetildi. Yurtimizning qaysi bozoriga bormang, sevimli mevangizni ko'rib, ko'zingiz quvnaydi.

QULUPNAY - TABIAT IN'OMI




Shu o'rinda bir ma'lumot: qulupnayning asl vatani Yevropa hisoblanib, uning birinchi navi Niderlandiyada paydo bo'lgan. O'zbekistonda esa uning «Jaydari», «Viktoriya», «Zenga-Zengana»,

ANTIQA BOSHQOTIRMA

1. Ona bilan ... , gul bilan lola.
2. Yaxshi xulq.
3. Rang turi.
4. Tog' guli.
5. Otaning otasi.
6. Dono, aqli.
7. Dunyo.
8. Boqiylik.
9. Salomning javobi.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV



TOPISHMOQ



Barcha birdek shodlanar,
Yurtda u bo'lsa mehmon.
Turli noz-u ne'matga,
To'lib ketar dasturxon.

(20X)

19-may 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'linagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSIKOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taqob.
ISSN 2010-6092
Adadi - 52898
Buyurtma N: J 9933